# O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI XORAZM VILOYATI BOG‘OT TUMANI HOKIMINING
# QARORI

Bog‘ot shaharchasi, O‘zbekiston ko‘chasi, 18-uy

2021-yil 10 - март   388к-son   Bog‘ot shaharchasi

**Боғот тумани Боғот шаҳарчаси “Оқтепа” маҳалласи ҳудудидан “Қишлоқ қурилиш инвест” масъулияти чекланган жамияти инжиниринг компанияси Хоразм вилоят филиалига 5 қаватли 30 хонадонли 2, 3 хонали уй-жойлар қурилиши учун лойиҳа-смета ҳужжатлари тайёрлатиш юзасидан ер майдони ажратиб бериш ҳақида**

Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2021 йил 3 март куни “Қишлоқлар ва шаҳарларда янги тизим асосида уй-жойларни қуриш борасида амалга оширилаётган ишлар самарадорлиги ва 2021 йилдаги устивор вазифалар”га бағишланган видеоселектор йиғилишида берилган топшириқларни ижроси юзасидан ҳамда “Қишлоқ қурилиш инвест” масъулияти чекланган жамияти инжиниринг компанияси Хоразм вилоят филиалининг 2021 йилда “Osiyo taraqqiyot banki” маблағлари ҳисобига 5 (беш) қаватли 30-хонадонли (ғиштли) 2, 3 хонали уй-жойлар қурилиши учун ер майдони ажратиб беришни сўраб туман ҳокимлигига йўллаган 2021 йил 5 мартдаги 9-173-сонли сўровномасини, Хоразм вилояти ер ресурслари ва давлат кадастри бошқармасининг, вилоят қурилиш бош бошқармасининг хулосаларини ва қишлоқ хўжалигига оид бўлмаган бошқа эҳтиёжлар учун ер участкалари бериш (реализация қилиш) масалаларини кўриб чиқиш бўйича туман комиссиясининг 2021 йилдаги далолатномасини кўриб чиқиб, Ўзбекистон Республикаси “Ер кодекси”нинг 6-моддасига асосланиб

**ҚАРОР ҚИЛАМАН:**

1. Қишлоқ хўжалигига оид бўлмаган бошқа эҳтиёжлар учун ер участкалари бериш (реализация қилиш) масалаларини кўриб чиқиш бўйича туман комиссиясининг Боғот шаҳарчаси “Оқтепа” маҳалласи ҳудудидан “Қишлоқ қурилиш инвест” масъулияти чекланган жамияти инжиниринг компанияси Хоразм вилоят филиалига 2021 йилда 4 та 5 (беш) қаватли 30 хонадонли 2, 3 хонали уй-жойлар қурилишига лойиҳа-смета ҳужжатлари

тайёрлатиш юзасидан ер майдони ажратиш тўғрисидаги 2021 йилдаги далолатномаси тасдиқлансин.

2. “Қишлоқ қурилиш инвест” масъулияти чекланган жамияти инжиниринг компанияси Хоразм вилоят филиалига Боғот шаҳарчаси “Оқтепа” маҳалласи ер харитасидан, қишлоқ хўжалигида фойдаланмайдиган ер майдонида жами 0,8 гектар 2021 йилда 5 (беш) қаватли 30 хонадонли 2, 3 хонали 4 та уй-жойлар қурилиши учун лойиҳа-смета ҳужжатларини тайёрлатишга ер майдони ажратиб берилсин.

3. “Қишлоқ қурилиш инвест” масъулияти чекланган жамияти инжиниринг компанияси Хоразм вилоят филиалидан:

-вилоят қурилиш бош бошқармасидан АРТ-1, АРТ-II (архитектура ва режалаштириш топшириқ)ларини ишлатиб олиш ва қурилиш лойиҳа-смета ҳужжатларини тайёрлатиш;

-қурилиш лойиҳа-смета ҳужжатларини тайёрлатишда тегишли корхона ва ташкилотларнинг хулосаларини олишни таъминлаш сўралсин.

-ушбу қарор АРТ-1, АРТ-II (архиектура ва режалаштириш топшириқ) ва қурилиш лойиҳа-смета ҳужжатларини тайёрлашга асос бўлиб, қурилиш ишларини бошлаш учун эса асос бўла олмаслиги тўғрисида огохлантирилсин.

4. Ушбу қарорнинг бажарилишини назорат қилиш туман ҳокимининг ўринбосари А.Курьязов зиммасига юклатилсин.

**Боғот тумани ҳокими** **Ш.Яхшибаев**